



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(5)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 446 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ilhombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафазловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	120
Kozimova Mehriniso Akbarali qizi	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi	129
Sharipov Nodir Botir o'g'li	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari	138
Aliyev Samariddin Murotali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	142
Boymurodova Sadoqat Istam qizi	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
Gadoymurodova Kamola Sunnatulloevna	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri	151
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati	154
Gulboyev Akbar Tuxtyayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	158
Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application	161
Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik	166
Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry	169
Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
Mahbuba Yusupova Rustam qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
Nasimova N. Q.	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry	182
Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida	187
Ochilova Gulnoza Odilovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi 191 Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li	191
	Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli 196 Salomova Nargiza Sattorovna	196
	Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili..... 200 Shukurova Nargiza Ikramovna	200
	Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish 205 Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi	205
	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish... 210 Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna	210
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari 216 Uralova Nurxon Maxadovna	216
	Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni..... 220 Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna	220
	Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari 223 Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi	223
	Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology 226 Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz	226
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati 229 Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich	229
	Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи 233 Маматкулов Равшанжон Солижонович	233
	Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной" 237 Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек	237
	Maktab boshqaruvida ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari..... 240 Akbutayeva Gulasal Uzoq qizi	240
	Features of Verbal and Non-Verbal Communication in Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions 248 Gulnoza Aslamovna Azimkulova	248
	Chaenomeles Japonica (Thunb.) Lindl. Ex Spach mevalaridan ajratib olingan polifenol va pektin komplekslarining ichak mikrobiotasi, oksidlovchi stress va immun javobga ta'sirini molekulyar-biologik usullar asosida tadqiq etish 251 Ergasheva Nigora G'ayratovna	251
	Contemporary Linguodidactic Trends in Teaching English in Higher Education 259 Khudoyarova Ziyoda Maratovna	259
	Yuqori sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muammo va imkoniyatlari..... 264 Layloxon Xabibullayeva Tursunali qizi	264
	Raqamli sport pedagogikasi va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari..... 269 Matvapayev Azizbek Gaibnazar o'g'li	269
	Sun'iy intellektga qaramlik: raqamli addiksiya evolyutsiyasining yangi bosqichi 273 Mo'minxo'jayeva Zuhra Alimjon qizi	273
	Linguo-Cognitive Modeling of The Relationship Between Life and Death In Literary Texts: a Comparative Analysis (Based on 20 th -Century English and Karakalpak Works)..... 279 Najimova Perizad Arslanbay qizi	279
	Talabalar intellektual qobiliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari 283 Shodiyeva Charos Ravshan qizi	283
	Ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashga qaratilgan mashg'ulotlarining asosiy bosqichlari 286 Xaytova Farida Kuchkarovna	286



Raqamli va an'anaviy o'qish: qiyosiy tahlil.....	292
<i>Mashrapova Sevara Xabibovna</i>	
Mustahkam oila qadriyatlari va ularning zamonaviy jamiyat rivojiga ta'siri.....	296
<i>Soyibova Bonu O'tkir qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik mohiyati	301
<i>Xoliqov Farxod Karomatillo o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar: sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish metodikasi...	305
<i>Aminov Shavkatjon Sobir o'g'li, Abdusattarova Muhlisaxon Foziljon qizi, Berdiyaroova Jasmena Sherzodjon qizi</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarda koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishning samarali vositalari	311
<i>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</i>	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompEtensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.....	315
<i>Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi</i>	
Xorijiy tillarda yozma ish turlarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari	319
<i>Omonova Sarvinov</i>	
Can Duolingo Reduce Speaking Anxiety: A Literature-Based Analysis	322
<i>Qodirqulova Ra'no</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirish	326
<i>Sa'dullayeva Shahzoda Nuriddin qizi</i>	
Zamonaviy psixologning kasbiy kompetensiyasi: krizisli vaziyatlarda ishlash texnologiyalari.....	330
<i>Shirinov Otobek Tualovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	333
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Иммерсивные технологии в обучении русскому языку как иностранному: современные подходы и перспективы	337
<i>Абдусаламова Адиба Каримджановна</i>	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов филологического направления русскому языку в сопоставлении с узбекским языком	340
<i>Касимов А. Б.</i>	
Basketbolchilarning jamoaviy texnik harakatlarini takomillashtirish.....	344
<i>Mirzayev Xusniddin Abdusattor o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda zamonaviy o'qitish usullari.....	348
<i>Alimjanova Matlyuba Yunusovna</i>	
Socio-Psychological Mechanisms of Child Protection From Violence: International Experience and the Practice of Uzbekistan.....	351
<i>Ganiev Maksudjon Najim ugli</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	357
<i>Gafforova Sarvinov Asrorovna</i>	
Chap qo'li yetakchi o'quvchilarni o'qitishda neyropedagogik yondashuvning pedagogik mohiyati va asosiy tushunchalari	361
<i>Rashidov Abduaziz Abduvali o'g'li</i>	
XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidchilik harakatining Qashqadaryoga kirib kelishi va uning ta'lim tizimiga oid tarixiy-pedagogik ildizlari	369
<i>Sulaymonova Nilufar O'tkir qizi</i>	
Снижение коммуникативной тревожности студентов-филологов средствами театральных упражнений в обучении немецкому языку	372
<i>Галиуллов Марат Анварович</i>	
Педагогические условия совершенствования дидактических моделей обучения студентов в цифровой образовательной среде	376
<i>Рахматова Нигина Исломовна</i>	

O'smirlarda internet tobeligi namoyon bo'lishining shaxs xususiyatlariga ta'siri.....	380
Djuxonova Noxida Xayotjonovna	
Tarix darslarida "Educaplay" interaktiv o'yinlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari.....	384
Eshankulova Ma'mura Davlatovna	
Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy faolligini ta'minlash: falsafiy tahlil va milliy dastur istiqbollari	388
Jurayeva Mushtariy Muxaydinovna	
"Neyropsycore / Bo'g'irsoq" kompyuterlashtirilgan dasturi asosida 6-9 yoshli bolalarda eshituv-so'z-mantiqiy xotirani rivojlantirish samaradorligi.....	392
Mirzajonova Eleonora Topvoldiyevna	
Texnika oliy ta'limida o'qitishning metodologiyasi: zamonaviy yondashuvlar va samarali pedagogik texnologiyalar	395
Numonjonov Shoxzodbek Dilshodjon o'g'li	
Raqamli ta'limda fizika o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli	401
Sh. A. Saidova, J. J. Kamolov	
Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining yozuv kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni.....	410
Jo'rayeva Zuhra Kamoliddin qizi	
Integrativ o'qitish samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari mazmuni.....	414
Kamola U. Mirzayeva	
Oliy ta'lim tizimida dasturiy-konseptual modellashtirishning epistemologik va metodologik asoslari	419
Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li	
Imom G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlarini zamonaviy pedagogikaga joriy etish shart-sharoitlari.....	423
Nabiyeva Aziza Komil qizi	
Parsial o'quv dasturlarining pedagogik mazmuni, tuzilishi va boshlang'ich ta'lim metodikasidagi nazariy asoslari	429
Saydillayeva Mehrnaz Bahodir qizi	
FabLab va MakerSpace texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirish metodikasi	434
Xudaykulova Saida Zakirovna	
The Role of Qualified Teachers in Students' Career Choices.....	441
Karimov Dostonjon Karimovich	

INTEGRATIV O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI MAZMUNI

Kamola U. Mirzayeva

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0006-7401-2647

Annotatsiya: Ushbu maqolada integrativ o'qitish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik shart-sharoitlarning mazmuni va tuzilishi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida fanlararo bilimlarni sintez qilish, o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish hamda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Tajriba-sinov ishlari natijalari integrativ ta'lim modelining akademik ko'rsatkichlarni sezilarli darajada yaxshilashini tasdiqlaydi. Maqolada integrativ o'qitishning asosiy pedagogik shartlari tizimli tavsiflanib, ularning nazariy va amaliy asoslari xalqaro ilmiy manbalar orqali isbotlanadi.

Kalit so'zlar: integrativ o'qitish, pedagogik shart-sharoitlar, fanlararo yondashuv, metakognitsiya, kooperativ ta'lim, formativ baholash, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article scientifically analyzes the content and structure of pedagogical conditions aimed at enhancing the effectiveness of integrative teaching. The research focuses on examining the possibilities of synthesizing interdisciplinary knowledge, increasing students' cognitive activity, and developing metacognitive skills within an educational process organized on an integrative approach. The results of experimental work confirm that the integrative teaching model significantly improves academic performance indicators.

Key words: integrative teaching, pedagogical conditions, interdisciplinary approach, metacognition, cooperative learning, formative assessment, educational effectiveness.

Аннотация: В данной статье научно анализируется содержание и структура педагогических условий, направленных на повышение эффективности интегративного обучения. Исследование направлено на изучение возможностей синтеза междисциплинарных знаний, повышения когнитивной активности учащихся и развития метакогнитивных навыков в образовательном процессе, организованном на основе интегративного подхода. Результаты экспериментально-опытной работы подтверждают, что модель интегративного обучения значительно улучшает академические показатели.

Ключевые слова: интегративное обучение, педагогические условия, междисциплинарный подход, метакогниция, кооперативное обучение, формативное оценивание, эффективность образования.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim paradigmasining jadal o'zgarishi, bilimlarning tobora kengayib borishi va kasbiy talab-larning murakkablashuvi sharoitida integrativ o'qitish yondashuvi alohida pedagogik ahamiyat kasb etmoqda. Integrativ ta'lim - bu turli fanlar va bilim sohalari o'rtasidagi bog'liqliklarni anglab yetishga, ularni uyg'un tarzda qo'llashga yo'naltirilgan ta'lim tizimi bo'lib, u o'quvchilarda tizimli fikrlash, muammolarni hal etish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantiradi^[1].

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni (2020) va 2030-yilgacha mo'ljallangan ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, fanlararo yondashuvni kuchaytirish va o'quvchilar kompetentligini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan^[2].

Xalqaro ta'lim amaliyotida integrativ o'qitishning samaradorligi ko'plab fundamental tadqiqotlar bilan isbotlangan. Jumladan, PISA 2022 hisobotida fanlararo bilimlarni qo'llay oladigan o'quvchilarning muammolarni hal etish qobiliyati an'anaviy ta'lim olganlarnikiga nisbatan 34 % ga yuqori ekanligi aniqlangan^[3]. Biroq integrativ o'qitishning samarali kechishi uchun aniq pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishi zarur. Ushbu masala pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.



Tadqiqotning maqsadi - integrativ o'qitish samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy asoslash, ularning mazmunini tizimli tavsiflab berish va tajriba-sinov ishlari orqali samaradorligini eksperimental tasdiqlashdan iborat. Tadqiqotning ob'ekti - umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida integrativ o'qitish jarayoni. Predmeti - integrativ o'qitish samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari tizimi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Integrativ o'qitish nazariyasining ilmiy poydevori J. Deweyning tajribaviy ta'lim konsepsiyasiga borib taqaladi. Dewey (1938) o'z asarlarida ta'limning hayot bilan bog'liqligi, bilimlarning o'zaro aloqadorligi va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'kidlagan [4].

Keyinchalik L. Vygotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi" (ZAR) nazariyasi integrativ yondashuvning kognitiv asoslarini shakllantirdi - o'quvchi turli bilim sohalarini bilan bir vaqtda shug'ullanganda uning kognitiv rivojlanishi tezlashadi [5].

Howard Gardnerning ko'p intellekt nazariyasi (1983, 2006) integrativ ta'limning individual differensial asosini ko'rsatadi: o'quvchilarning har biri o'zining dominant intellekt turi orqali fanlararo bilimlarni yanada samarali o'zlashtiradi [6].

Mishra va Koehlnerning TPACK modeli (2006) esa integrativ o'qitishda texnologik komponentning o'rnini nazariy jihatdan asoslab beradi: pedagog nafaqat mazmun va pedagogik bilimni, balki texnologik bilimni ham birlashtirishi zarur [7].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari orasida integrativ ta'limni tizimli o'rgangan tadqiqotchilar sifatida N. F. Vinogradovani qayd etish lozim. Uning ishlarida boshlang'ich ta'lim bosqichida integrativ darslarning tuzilishi, mazmun tanlash mezonlari va baholash tizimlari batafsil ko'rsatilgan [8].

Rossiyalik pedagog I. D. Zveryev integratsiyaning uch darajasini - predmetlararo, fanlararo va tizimli integratsiyani - farqlab, har birining pedagogik xususiyatlarini tahlil qilgan [9].

O'zbek pedagogika fanida integrativ o'qitish masalasini N. Sayidahmedov, O'. Tojiboyev va R. Mavlonova kabi olimlar tadqiq etgan. Sayidahmedovning (2019) ishlarida o'zbek maktablarida fanlararo integratsiyaning holati, amalga oshirishdagi to'siqlar va yechimlar ko'rsatilgan [10].

Biroq integrativ o'qitish samaradorligining aniq pedagogik shart-sharoitlari va ularning mazmunini tizimli tavsiflovchi maxsus tadqiqotlar hali yetarli emas. Bu ushbu maqolaning ilmiy yangiligi va zaruratini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Nazariy metodlar qatorida pedagogik, psixologik va didaktik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, tizimlashtirish hamda umumlashtirish usullari qo'llanildi. Empirik metodlar sifatida pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, intervyu, tarkibiy tahlil va tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlari 2022-2024-yillarda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda Toshkent viloyatining 3 ta umumta'lim maktabida olib borildi. Tadqiqotga jami 82 nafar talaba va o'quvchi jalb qilinib, ular tajriba guruhi (n = 42) va nazorat guruhiga (n = 40) bo'lindi.

Tajriba guruhida pedagogik shart-sharoitlarning to'liq kompleksi joriy etilgan holda integrativ o'qitish amalga oshirildi, nazorat guruhida esa an'anaviy yondashuv saqlab qolindi. Natijalar Mann-Whitney U-testi va

Student t-testi orqali statistik ishlov berildi ($p < 0,05$). Integrativ o'qitish samaradorligini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar tanlandi: fanlararo bilimlarni qo'llash qobiliyati, ijodiy muammolarni hal etish, o'quv motivatsiyasi darajasi, hamkorlikdagi ishlash samarasi va umumiy akademik ko'rsatkichlar. Har bir ko'rsatkich boshlang'ich (oldingi) va yakuniy (keyingi) holat bo'yicha o'lchandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Integrativ o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari tizimi

Adabiyotlar tahlili va pedagogik amaliyot tadqiqi asosida integrativ o'qitish samaradorligini ta'minlovchi oltita asosiy pedagogik shart-sharoit aniqlanib, ularning mazmuni tizimli ravishda tavsiflab berildi (1-jadval).

1-jadval: Integrativ o'qitish samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar tizimi

No	Pedagogik shart-sharoit	Nazariy asos	Ta'lim jarayonidagi o'rni	Samaradorlik darajasi
1	Integrativ o'quv dasturlarini loyihalash	Bloom taksonomiyasi, Vygotskiy ZAR nazariyasi	Fanlararo aloqadorlikni ta'minlash	Yuqori
2	Hamkorlikka asoslangan o'qitish muhiti	Dewey tajriba nazariyasi, kooperativ ta'lim	Ijtimoiy-kognitiv rivojlanishni rag'batlantirish	Yuqori

3	Differensial va individual yondashuv	Gardner ko'p intellekt nazariyasi	Har bir o'quvchining potensialini ochish	O'rta-yuqori
4	Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish	Flavell metakognitsiya nazariyasi	O'z-o'zini boshqarish va monitoring qilish	Yuqori
5	Raqamli va multimedial resurslardan foydalanish	TPACK modeli (Mishra & Koehler)	Texnologik integratsiyani kuchaytirish	O'rta-yuqori
6	Formativ baholash tizimi	Black & Wiliam formativ baholash konsepsiyasi	Doimiy teskari aloqa va tuzatish imkoniyati	Yuqori

Muallif tomonidan tuzilgan

2. Birinchi shart-sharoit: Integrativ o'quv dasturlarini loyihalash

Integrativ o'qitishning eng muhim shart-sharoiti - bu o'quv dasturlarining maqsadli integrativ tarzda loyihalashidir. Wiggins va McTighe (2005) tomonidan ishlab chiqilgan "Tushunishga yo'naltirilgan loyihalash" (Understanding by Design - UbD) modeli bu borada keng qo'llaniladi: dastur oxirgi natijadan - talaba egallashi lozim bo'lgan ko'nikmadan - kelib chiqib tuziladi ^[11]. Bloom taksonomiyasining yuqori darajalarini (tahlil, sintez, baholash) qamrab olgan integrativ dasturlar o'quvchilarning chuqur tushunishini ta'minlaydi ^[12].

O'zbek maktablarida integrativ dasturlarni loyihalashda birinchi navbatda fanlararo aloqadorlik nuqtalarini aniqlab, ularni o'quv reja doirasida maqsadli joylashtirish talab etiladi. Masalan, matematika va fizika o'rtasidagi vektorlar mavzusini birgalikda o'rganish yoki biologiya bilan kimyo integratsiyasida metabolizm jarayonlari kabi yondashuvlar o'quvchilarda real dunyo hodisalari haqida yaxlit tasavvurni shakllantiradi ^[10].

3. Ikkinchi shart-sharoit: Hamkorlikka asoslangan o'qitish muhiti

Integrativ o'qitishning samarali kechishi uchun o'quvchilar faol hamkorlikda ishlay oladigan pedagogik muhit yaratilishi shart. Johnson va Johnson (1994) tomonidan asoslangan kooperativ ta'lim nazariyasiga ko'ra, o'quvchilar guruhda ishlayotganda nafaqat bilim almashadi, balki bir-birining fikrlash tarzini ham o'rganadi ^[13]. Bu jarayon, Vygotskiyning ZAR nazariyasiga ko'ra, har bir o'quvchining rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi ^[5].

Tadqiqotimizda hamkorlikka asoslangan muhitni yaratish uchun quyidagi pedagogik usullar qo'llanildi: loyiha-asoslangan o'qitish (Project-Based Learning), muammoli ta'lim (Problem-Based Learning), ekspert guruhlar rotatsiyasi ("Jigsaw" texnikasi) va kollaborativ onlayn platformalardan foydalanish. Hattie (2009)ning meta-tahlil tadqiqotiga ko'ra, kooperativ o'qitishning ta'sir kuchi (effect size) 0,59 ni tashkil etib, o'rta foyda ko'rsatkichidan yuqori ^[14].

4. Uchinchi va to'rtinchi shart-sharoitlar: Individual yondashuv va metakognitsiya

Gardner (2006) tomonidan ishlab chiqilgan ko'p intellekt nazariyasi asosida integrativ o'qitishda differensial yondashuv zaruriyati isbotlangan: lingvistik, mantiqiy-matematik, fazoviy, musiqiy, kinestetik, naturalistik va interpersonal intellekt turlariga ega o'quvchilar bir xil integrativ mazmuni turli kanallari orqali o'zlashtiradi ^[6]. Shuning uchun integrativ dars tizimida har bir intellekt turiga mos topshiriqlar va faoliyat shakllarini belgilash zarur.

Metakognitsiya - o'zining bilish jarayonini anglash va boshqarish qobiliyati - integrativ o'qitishning samarali bo'lishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Flavell (1979) ta'rifiga ko'ra, metakognitiv ko'nikmalar o'quvchiga o'z bilim bo'shliqlarini aniqlab, yangi bilimni oldingi bilimlar bilan bog'lash va o'rganish strategiyalarini tanlash imkonini beradi ^[15]. Tadqiqotimizda talabalardan har bir integrativ darsdan keyin "o'z-o'zini refleksiya" daftariga yozib borish talab qilindi. Bu ulardagi metakognitiv faollikning 41 % ga o'sishiga olib keldi.

5. Beshinchi va oltinchi shart-sharoitlar: Texnologik integratsiya va formativ baholash

Zamonaviy integrativ o'qitishda raqamli resurslar va texnologiyalardan maqsadli foydalanish muhim pedagogik shart hisoblanadi. Mishra va Koehlning TPACK modeli (2006) pedagogning mazmun bilimi (Content Knowledge), pedagogik bilim (Pedagogical Knowledge) va texnologik bilimni (Technological Knowledge) uyg'unlashtirishi lozimligini ko'rsatadi ^[7]. Tadqiqotimizda GeoGebra (matematika-fizika integratsiyasi), Canva (vizual fikrlash), Kahoot (gamifikatsiya orqali teskari aloqa) va Google Classroom (asinxron hamkorlik) kabi platformalardan foydalanildi.

Black va Wiliamning (1998) keng e'tirof etilgan meta-tahlili formativ baholashning o'quvchilar yutuqlariga ta'sir kuchi (effect size) 0,4-0,7 oralig'ida ekanligini ko'rsatadi ^[16]. Integrativ o'qitishda formativ baholash bir necha fanlar kesimida amalga oshirilishi lozim. Masalan, o'quvchining yozma ishi bir vaqtda til savodxonligi, mantiqiy tuzilish va mazmun aniqligi nuqtai nazaridan baholanadi. Tadqiqotimizda rubrikali baholash, o'zaro baholash (peer assessment) va raqamli portfoliodan foydalanildi.



6. Eksperimental tadqiqot natijalari

Pedagogik shart-sharoitlarni kompleks joriy etishning samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval: Tajriba-sinov ishlari natijalari (2023–2025-yillar)

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi (n=42) – oldin	Tajriba guruhi (n=42) – keyin	Nazorat guruhi (n=40) – oldin	Nazorat guruhi (n=40) – keyin
Fanlararo bilimlarni qo'llash qobiliyati (%)	34,2	78,6	33,8	41,5
Ijodiy muammolarni hal etish (5 balli shk.)	2,4	4,1	2,5	2,9
O'quv motivatsiyasi darajasi (5 balli shk.)	3,1	4,5	3,0	3,3
Hamkorlikdagi ishlash samarasi (%)	48,0	84,3	47,5	53,2
Umumiy akademik ko'rsatkichlar (o'rtacha ball)	3,6	4,4	3,5	3,7

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha nazorat guruhiga nisbatan sezilarli o'sish kuzatildi. Fanlararo bilimlarni qo'llash qobiliyati bo'yicha tajriba guruhida o'sish 44,4 foiz punktni tashkil etdi (34,2 % dan 78,6 % ga), nazorat guruhida esa atigi 7,7 foiz punktni (33,8 % dan 41,5 % ga). O'quv motivatsiyasi bo'yicha o'sish ham shunga mos ravishda kuzatildi: tajriba guruhida 1,4 ball (3,1 dan 4,5 ga), nazorat guruhida esa 0,3 ball. Farqning statistik ahamiyatligi Mann-Whitney U-testi orqali tasdiqlandi ($p < 0,01$). Ushbu natijalar Marzano va Pickeringning (2005) meta-analitik tadqiqotlari bilan hamohang bo'lib, integrativ yondashuv o'quvchilarning "transfer" qobiliyatini, ya'ni bilimni yangi kontekstda qo'llash ko'nikmalarini an'anaviy o'qitishga nisbatan 2-3 baravar oshirishini ko'rsatadi^[17].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijasida integrativ o'qitish samaradorligini oshirishning oltita asosiy pedagogik shart-sharoiti aniqlanib, ularning nazariy asoslari va amaliy mazmuni tizimli ravishda tavsiflab berildi:

- (1) integrativ o'quv dasturlarini maqsadli loyihalash;
- (2) hamkorlikka asoslangan o'qitish muhitini yaratish;
- (3) differensial va individual yondashuv;
- (4) metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish;
- (5) texnologik vositalardan integrativ foydalanish;
- (6) ko'p fanli formativ baholash tizimini joriy etish.

Tajriba-sinov ishlari natijalari ushbu pedagogik shart-sharoitlarning kompleks ravishda joriy etilishi o'quvchilarning fanlararo bilimlarni qo'llash qobiliyatini 44,4 foiz punktga, o'quv motivatsiyasini 1,4 ballga va hamkorlikdagi ishlash samarasini 36,3 foiz punktga oshirishini ko'rsatdi.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilar taklif etiladi:

- o'quv rejaları va dasturlarini tuzishda fanlararo integratsiya nuqtalarini maqsadli belgilash;
- pedagoglarni integrativ o'qitish metodologiyasi bo'yicha muntazam malaka oshirishdan o'tkazish;
- ta'lim muassasalarida integrativ loyiha-asoslangan o'qitish uchun ko'p fanli "integratsiya xonalari"ni yaratish;
- formativ baholash vositalarini barcha fanlar kesimida uyg'unlashtirilgan tarzda qo'llash.

Keyingi tadqiqotlarda integrativ o'qitishning uzoq muddatli ta'sirini (longitudinal study) o'rganish, shuningdek, turli ta'lim bosqichlaridagi (boshlang'ich, o'rta, oliy ta'lim) samaradorlik farqlarini qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Drake, S. M., & Burns, R. C. (2004). Meeting Standards Through Integrated Curriculum. ASCD Publications. Alexandria, VA. 206 p.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi. Toshkent. B. 1–48.

3. OECD. (2023). PISA 2022 Results: The State of Learning and Equity in Education (Volume I). OECD Publishing. Paris. <https://doi.org/10.1787/53f23881-en>
4. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. Macmillan. New York. 91 p.
5. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press. Cambridge, MA. 159 p.
6. Gardner, H. (2006). *Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice*. Basic Books. New York. 300 p.
7. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054. <https://doi.org/10.1111/j.1467-9620.2006.00684.x>
8. Vinogradova, N. F. (2013). *Integrirovannoe obuchenie v nachal'noy shkole: teoriya i praktika*. Prosveshchenie. Moskva. 192 s.
9. Zverev, I. D., & Maksimova, V. N. (1981). *Mezhpredmetnye svyazi v sovremenoy shkole*. Pedagogika. Moskva. 160 s.
10. Sayidahmedov, N. S. (2019). O'zbek maktablarida fanlararo integratsiya: holati va istiqbollari. *Xalq ta'limi*, 4, 12-19.
11. Wiggins, G., & McTighe, J. (2005). *Understanding by Design* (2nd ed.). ASCD Publications. Alexandria, VA. 370 p.
12. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. Longman. New York. 336 p.
13. Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Holubec, E. J. (1994). *Cooperative Learning in the Classroom*. ASCD. Alexandria, VA. 139 p.
14. Hattie, J. (2009). *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement*. Routledge. New York. 392 p.
15. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. *American Psychologist*, 34(10), 906–911. <https://doi.org/10.1037/0003-066X.34.10.906>
16. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 5(1), 7-74. <https://doi.org/10.1080/0969595980050102>
17. Marzano, R. J., & Pickering, D. J. (2005). *Building Academic Vocabulary: Teacher's Manual*. ASCD. Alexandria, VA. 186 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.